


Yondosh mavzu:
tanlovlar va musobaqalar.

To'plam, to'plamlar elementlari,
elementlar miqdori.




1. Rasmdagi nechta qiz bir xil yubka kiygan? Rasmdagi nechta qiz bir xil kurtka kiygan? Rasmda nechta qiz tasvirlangan?



A va B to'plamlarning barcha elementlari birgalikda to'plamlar birlashmasini hosil qiladi. Birlashma $\cup$ belgisi bilan belgilanadi.

Yozilishi: $A \cup B$.

O'qilishi: A va B to'plamlar birlashmasi.



A – yashil shakllar, B – to'g'ri to'rtburchaklar.

$A \cup B$ – barcha shakllar.

2. A – yirtqich hayvonlar to'plami, B – o'txo'r hayvonlar to'plami.
 $A \cap B$ to'plamga qanday hayvonlar kiradi? $A \cup B$ ni qanday umumiy so'z bilan atash mumkin?

134. To'plamlar birlashmasi






3. Ikki A va B to'plam uchun ularning birlashmasi va kesishmasini toping. Ushbu to'plamlar uchun Eyler-Venn diagrammasini tuzing:

$$A = \{2, 4, 6, 8, 10, 12\};$$

$$B = \{3, 6, 9, 12, 15\}.$$



4. Daftaringizga A va B to'plamlarning diagrammalarini qayta chizing. Ularning birlashish sohasini bo'yang.



5. Musiqa va kitobxonlik tanlovlarida ishtirok etuvchilar majlislar zalida yig'ildi. Musiqa tanlovida 10 kishi, kitobxonlik tanlovida esa 17 kishi ishtirok etadi. Agar 8 kishi bir vaqtda ikkita musobaqada ishtirok etishi ma'lum bo'lsa, majlislar zalida necha kishi yig'ilgan?



6. Masalalarga doir ifodalar tuzing va ularni hisoblang.

a) Ko'rgazmada 3ta birinchi sinf, 2ta ikkinchi sinf, 4ta uchinchi sinf va 3ta to'rtinchi sinf ishtirok etdi. Har bir sinf 3tadan qo'lda yasalgan buyum keltirdi. Ko'rgazmaga jami nechta qo'lda yasalgan buyum olib kelingan?

b) Tanlovda har bir ishtirokchiga so'zga chiqishi uchun 8 minut rejalashtirilgan. 2 soat ichida necha ishtirokchi so'zga chiqishga ulguradi?

d) Rasm tanlovida 25 nafar o'quvchining har biriga 4tadan qalin va 5tadan yupqa varaq tayyorlab qo'yilgan. Yupqa varaq qalin varaqdan qancha ko'p tayyorlangan?

e) Agar 27 qatnashchining faqat uchdan biri so'zga chiqqan bo'lsa, yana necha qatnashchining so'zga chiqishi kutilmoqda?



7. Tengliklar to'g'ri bo'lishi uchun katakchalar o'rnida qanday sonlar bo'lishi kerak? Qanday tengliklarning bir nechta yechimini topish mumkin?

$$25 + \square = 37 + 25$$

$$\square \cdot 22 = 56 \cdot \square$$

$$7 \cdot \square = \square \cdot 7$$

$$124 - \square = 123$$

$$\square + 0 = 303$$

$$\square \cdot 0 = 0$$

$$258 \cdot \square = 258$$

$$\square \cdot 1 = 124$$

$$1 \cdot \square = \square$$



8. Ishtirokchilar xalqaro musobaqada ushbu medallarni qo'lga kiritishdi:



2 marta ko'p



12 ta medal



Kumush va bronza medallar birgalikda qancha bo'lsa, shundan 4 marta kam

?



9. A to'plamda 5 ta, B to'plamda 7 ta, $A \cap B$ to'plamda esa 3 ta element mavjud. $A \cup B$ to'plam nechta elementni o'z ichiga oladi?



10. Ifodani amallarning bajarilish tartibiga rioya qilgan holda hisoblang. Bu yerda qanday so'z yashiringan?

$$(714 - 296) \cdot 8 - 1000 : (9500 : 190) - 172$$

J 6 190

I 3 324

V 3 344

R 20

S 4 18

O 50

N 3 152

K 8 10



11. Tanlovda har bir ishtirokchi kamida bitta mantiqiy masalani yechdi. 18 nafar ishtirokchi kubiklar haqidagi, 16 nafar ishtirokchi robotlar haqidagi mantiqiy masalani yechdi. 8 nafar ishtirokchi esa ikkala masalani yechdi. Tanlovda necha nafar ishtirokchi qatnashgan?